

O'ZBEKISTONDA TA'LIM TURIZMI TURIZM SOHASINING
DRAYVERI SIFATIDA

Ikromov Is'hoq Isomjon o'g'li
Buxoro Davlat Universiteti talabasi is
Maxmudova Nodira Uktamovna
Buxoro Davlat Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ta'lism turizmining rivojlanishi, uning mamlakat turizm sohasidagi drayver sifatidagi o'rni va iqtisodiyotga qo'shgan hissasi bat afsil tahlil qilingan. Rasmiy statistik ma'lumotlar va misollar asosida ta'lism turizmining bugungi holati, xalqaro talabalarni jalb etishdagi yutuqlar va istiqboldagi rejalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lism turizmi, turizm drayveri, xalqaro talabalar, immersion usul, sun'iy til to 'sig'i.

Kirish

Globalizatsiya jarayonida ta'lism turizmi dunyo bo'ylab tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ta'lism turizmi nafaqat bilim olish, balki madaniy almashinuv va iqtisodiy foyda keltiruvchi soha sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Ta'lism turizmi - bu tarix, madaniyat, ijtimoiy yoki til o'rganish kabi sohalarda ta'lism, kasbiy yoki shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan bilim va tajribalarni olishga qaratilgan turli yo'nalishlarga sayohat qilish usuli. Ta'lism turizmi kontseptsiyasi boshqa yashash joyida bilim olishdan manfaatdor bo'lgan talabalar, xodimlar, o'qituvchilar, tadqiqotchilarining harakatchanligi yoki almashinuvni orqali amalga oshiriladigan barcha o'quv faoliyatini, o'qitish va kasbiy tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. turli o'qitish usullarini o'z ichiga olgan holda tajriba, urfodatlar, an'analar, madaniy meros haqidagi bilimlarni egallahsha o'rgatish. O'zbekiston boy tarixiy-madaniy merosi va rivojlanayotgan ta'lism tizimi bilan chet ellik talabalar uchun jozibador mamlakatga aylanmoqda. Asosiy maqsadi chet tilini "immersion" usulda o'rganish bo'lgan til sayohati talabalar orasida eng keng tarqalgan ta'lism turizmi turidir. Ta'lism turizmi tufayli talabalar yangi bilimlar tajribalarga ega bo'lish bilan bir qatorda, dunyoqarashlarini rivojlantiradilar, do'stlar orttiradilar va xorijda dam olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekistonda ta'lism turizmining holati

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lism turizmi sezilarli darajada rivojlanmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021/2022-o'quv yili boshida respublikamizdagи oliy ta'lism muassasalarida tahsil olayotgan qozog'istonlik talabalar soni 526 nafarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2019/2020-o'quv yilida 217 nafarni, 2020/2021-o'quv yilida esa 277 nafar etib qayd qilingan edi. Bundan tashqari, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida jami 5,7 million nafar chet el fuqarosi turistik maqsadlarda O'zbekiston



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Respublikasiga tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich 2020-yilda 1,4 million, 2021-yilda 1,1 million, 2022-yilda 3,6 million, 2023-yilda esa 4,9 million nafarni tashkil etgan. Qolaversa O'zbekiston qadimdan Markaziy Osiyoning madaniy markazi sifatida tanilgan. Bu esa Samarkand, Buxoro va Xiva kabi shaharlardagi tarixiy yodgorliklar xorijiy talabalar va olimlar uchun qiziqish uyg'otadi. Xususan, Samarkanddagi Registon majmuasi, Shohi Zinda va Imom al-Buxoriy maqbarasi nafaqat turistik joylar, balki ilmiy-tarixiy izlanishlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda esa O'zbekiston hukumati ta'lif tizimini xalqaro darajada rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. So'nggi yillarda bir qator xalqaro universitetlarning filiallari ochildi.

Chunonchi :

- Westminster International University in Tashkent (WIUT) – iqtisodiyot va biznes sohalarida sifatlari ta'lif beradi.
- INHA University in Tashkent – axborot texnologiyalari va kompyuter fanlari bo'yicha yetakchi dargoh.
- Amity University – xalqaro talablarni qondiruvchi ta'lif dasturlarini taklif etadi.
- Shuningdek, ta'lif tizimini isloh qilishda UNESCO va ERASMUS+ kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilinmoqda.
- Xalqaro Hamkorlikda Toshkentdagi Turin Politexnika Universiteti Italiyaning yetakchi universitetlari bilan hamkorlikda texnik ta'lif dasturlarini amalga oshirmoqda.

Ilmiy Tadqiqotlar: Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti sharq tillari va madaniyati bo'yicha xalqaro darajadagi ko'plab ilmiy tadbirlar o'tkazadi, bu esa xorijiy olim va talabalarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi

Ingliz Tilidagi Dasturlar :

O'zbekiston oliy ta'lif muassasalarida ingliz tilida o'qitiladigan dasturlar soni ortmoqda. Bu xorijlik talabalar uchun qo'shimcha imkoniyat yaratib, mamlakatning xalqaro ta'lif bozoridagi nufuzini oshiradi.

O'zbekistonda yashash va ta'lif xarajatlari ham boshqa ko'plab davlatlarga qaraganda ancha arzon. Bu esa chet ellik talabalar uchun mamlakat hududida ancha vaqt qolib ta'lif olish va shuning bilan bir qatorda mamlakat urf-odat va an'analari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Shuning bilan bir qatorda Ta'lif turizmida bir qator muammolar ham mavjud. Ulardan biri bugungi kunda O'zbekistonda ta'lif sohasi izchil va bosqichma-bosqich isloh qilinayotkan bo'lsada, ba'zi oliy ta'lif muassasalarida zamonaviy texnologiyalar va laboratoriylar yetishmasligi sezilmoqda. Bu esa xorijiy talabalar uchun o'quv jarayonini biroz murakkablashtiradi, qolaversa talabaning ta'lif olish ehtiyojlarini yetarli darajada qondira olmaydi. Va yana shuni ham takidlab o'tish joizki, xalqaro talabalarni qabul qilish jarayonida ingliz tilida dars bera oladigan malakali o'qituvchilarning yetishmasligi muammosi mavjud. Bu holat talabalar uchun sun'iy til to'sig'ini keltirib chiqaradi hamda ularning muhitga moslashishni qiyinlashtiradi.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xorijlik talabalar uchun yotoqxona va moslashish jarayonini yengillashtiruvchi xizmatlar hali to‘liq rivojlanmagan. Shu sababli, xorijlik talabalar ba’zi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Statistik ma’lumotlariga ko‘ra 2023-yilda O‘zbekistonda 10 mingdan ortiq xorijiy talaba tahsil olgan, bu esa 2018-yildagi ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘p.

Ta’lim turizmining iqtisodiy ahamiyati

Ta’lim turizmi mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltiradi. Chet ellik talabalar nafaqat o‘qish uchun to’lovlar, balki yashash, transport va boshqa xizmatlar uchun ham mablag’ sarflaydilar. Bu esa mahalliy iqtisodiyotning turli sohalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, O‘zbekistonda 2024-yilning yanvar-fevral oylarida O‘zbekistonda ta’lim sohasida ko‘rsatilayotgan barcha xizmatlarning 57 foizdan ortig’i oliy o‘quv yurtlariga to‘g’ri kelgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 1,8 trillion so‘mni tashkil etgan. 2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida 17,6 ming nafar chet el fuqarosi ta’lim olish maqsadida tashrif buyurgan. Bu esa Ta’lim turizmi sohasida faoliyat yurituvchi universitetlar, til markazlari, yotoqxonalar, transport va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojlanishi natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Qolaversa mahalliy aholi bandligini oshiradi hamda boshqa infratuzilma obyektlari modernizatsiya qilinadi va bu umumiy iqtisodiy rivojlanishga o‘zining sezilarli hissasini qo’shadi. Jahondagi rivojlangan mamlakatlar statistikasiga qaraydigan bo‘lsak Avstraliyada Ta’lim turizmi Avstraliya iqtisodiyotiga yillik taxminan 37,6 milliard avstraliya dollari miqdorida daromad keltiradi va 240,000 dan ortiq ish o‘rinlarini ta’minlaydi. Xuddi shunday Buyuk Britaniya misolida olib qaraydigan bo‘lsak Xorijiy talabalar Buyuk Britaniya iqtisodiyotiga yillik o‘rtacha 25,9 milliard funt sterling miqdorida hissa qo’shadi.

Albatta O‘zbekistonda ham ta’lim turizmini rivojlantirish imkoniyatlari boshqa rivojlangan davlatlar imkoniyatlaridan kam emas. O‘zbekiston boy tarixiy-madaniy merosga ega ekanligini hisobga olgan holda xorijiy talabalarni jalb qilish uchun katta salohiyatga ega.

Ta’lim turizmini rivojlantirish uchun quyidagilar amalga oshirilishi mumkin:

- Ta’lim sifatini oshirish: Xalqaro standartlarga mos keladigan ta’lim dasturlarini joriy etish va malakali o‘qituvchilarni jalb qilish.
- Infratuzilmani yaxshilash: Universitetlar va yotoqxonalarni modernizatsiya qilish, talabalar uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish.
- Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: Chet el universitetlari bilan hamkorlik dasturlarini yo‘lga qo‘yish va talabalar almashinuvini tashkil etish.

Xalqaro hamkorlik va rivojlanish

O‘zbekistonda ta’lim turizmi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada bir nechta mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan.

Qozog‘iston bilan hamkorlik:

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Oliy ta'lim sohasida O'zbekiston va Qozog'iston universitetlari o'rtasida 280 dan ortiq shartnoma va memorandumlar imzolangan. 2022-yil 22-dekabr kuni oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. Shuningdek, har yili O'zbekistonda Qozog'iston oliy o'quv yurtlarining ko'rgazma va yarmarkalari o'tkazilib, ularda Qozog'istonning 40 ga yaqin universitetlari vakillari ishtirok etadi. Bundan tashqari, ikki mamlakat oliy o'quv yurtlari o'rtasida 4 ta qo'shma ta'lim dasturi amalga oshirilib, ularda 188 nafar talaba tahsil olmoqda.

Indoneziya bilan hamkorlik:

Buxoro davlat universiteti va Indoneziyadagi Gunadarma universiteti o'rtasida "Raqamli turizm" qo'shma magistratura ta'lim dasturi yo'lga qo'yilgan. 2021-yilda ushbu dasturni 8 nafar o'zbekistonlik va 11 nafar indoneziyalik talaba tamomlab, ikkala universitet diplomi bilan taqdirlangan. Shuningdek, Gunadarma universitetidan arxitektura yo'nalishida tahsil olayotgan 100 nafarga yaqin talaba Buxoroga kelib, islom arxitekturasi bo'yicha o'z loyihibarini taqdim etgan. Kelgusida sun'iy intellektni rivojlantirish va texnoparklarda ilmiy stajirovkalarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Chirchiqda Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston tadqiqot universiteti filiali ochilishi rejalashtirilgan. Bunday tashabbuslar esa chet ellik talabalarni jalb etish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-iyundagi PF-101-sod Farmoniga muvofiq, 2030-yilga qadar turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga, tibbiyat va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish belgilangan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan ma'lumki O'zbekistonda ta'lim turizmi turizm sohasining muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda. Chet ellik talabalarni jalb etish orqali esa mamlakat iqtisodiyoti va ta'lim tizimi rivojlantirish ko'zda tutilgan. Ushbu ma'lumotlar O'zbekistonda ta'lim turizmi sohasida xalqaro hamkorlikning izchil rivojlanayotganini va mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Kelgusida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va ta'lim sifatini oshirish orqali O'zbekiston ta'lim turizmi bozorida yetakchi o'rnlardan birini egallashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamroyev X.R. (2023) Turizmologiya. 71010401-Turizm (faoliyat turlari bo'yicha) magistratura mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma, Buxoro-Kamolot nashriyoti, 10-16.
2. Nancy Testón Franco a, Jair Emmanuel Onofre Sánchez, Ernesto R. Ahumada López (2022). Educational tourism. A theoretical review of the phenomenonTurismo Educativo. Una revisión teórica del fenómeno. Journal of Administrative Science. Biannual Publication, Vol. 4, No. 7, 26-31.
3. Turobovich, J. A., Uktamovna, M. N., & Turobovna, J. Z. (2020). Marketing aspects of ecotourism development. *Economics*, (1 (44)), 25-27.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

4. Uzbekistan, B. THE ROLE OF INNOVATIONS IN COMPETITIVENESS OF HOTEL INDUSTRY.
5. Juraev, A. T., Mahmudova, N. U., & Juraeva, Z. T. MARKETING ASPECTS OF ECOTOURISM DEVELOPMENT МАРКЕТИНГОВЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИЗМА.
6. Mahmudova, N. U. (2016). МАРКЕТИНГОВЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ТУРИЗМА. In *СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ* (pp. 648-651).
7. Mahmudova, N. U. (2017). ОСОБЕННОСТИ РЕКЛАМЫ И ПООЩРЕНИЯ В РЕСТОРАННОМ БИЗНЕСЕ FEATURES OF PROMOTION AND ADVERTISING IN RESTAURANT BUSINESS. Редакционная коллегия: СВ Дусенко—доктор социологических наук, профессор НЛ Авилова—доктор исторических наук, профессор, 279.
8. Mahmudova, N. U. (2019). The role of innovations in competitiveness of hotel industry. *Мировая наука*, (4 (25)), 69-72.
9. Maxmudova, N. U. (2019). THE INFLUENCE OF TOUR GUIDE'S SATISFACTION OF TOURISTS. *Теория и практика современной науки*, (5 (47)), 49-51.
10. Maxmudova, N. (2022). TA'LIM TURIZMI XIZMATLARINING TAMOYILLARI, VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 5(7).
11. Mahmudova, N. (2022). ТАЪЛИМ ТУРИЗМИНИНГ МОҲИЯТИ, НАЗАРИЙ ВА КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ. *Economics and Innovative Technologies*, 10(3), 414-421.
12. Mahmudova, N. U., & Шомуродова, И. Ф. (2017). Особенности рекламы и поощрения в ресторанном бизнесе. In *Современные тенденции и актуальные вопросы развития туризма и гостиничного бизнеса в России* (pp. 279-284).
13. Mahmudova, N. U. (2017). Экологический туризм один из перспективных видов туризма в Узбекистане. In *СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ* (pp. 211-215).
14. Turobovich, J. A., Uktamovna, M. N., & Turobovna, J. Z. (2020). Marketing aspects of ecotourism development. *Economics*, (1 (44)), 25-27.
15. Mahmudova, N. U., & Ахматова, М. Э. (2016). Кредитная платёжная система как увеличивающий фактор туристического потока в туризме. *Молодой ученый*, (5), 367-370.
16. Mahmudova, N. U., & Ахророва, Н. У. (2017). Инфраструктура экологического туризма. In *СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ* (pp. 209-211).
17. Djuraeva, Z. T., Mahmudova, N. U., & Khurramov, O. K. (2016). Definitions, principles and main features of ecotourism. In *Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования* (pp. 783-789).